

**CHET TILINI O'QITISHDA DIZAYN-FIKRLASH METODINING
VUJUDGA KELISHI**

Gulnoza Toshmuhammedova

g.toshmukhammedova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dizayn-fikrlash metodining kelib chiqishi, mohiyati va ta'lim, ayniqsa chet tilini o'qitishdagi qo'llanilishi yoritilgan. Dizayn fikrlash bu — muammolarni hal qilishda ijodiy va tizimli yondashuv bo'lib, foydalanuvchining ehtiyojlarini inobatga olgan holda innovatsion yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Maqolada bu metodning tarixiy ildizlari, amaliy qo'llanilishi, ayniqsa ingliz tilini o'rgatishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. O'qituvchilarning bu metodga bo'lgan qarashlari, tajriba, malaka va gender omillarining ahamiyati statistik tahlil asosida ko'rib chiqilgan. Muallif dizayn-fikrlash metodini o'quv jarayonlarini modernizatsiya qilish va yangi avlod kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Dizayn-fikrlash, Innovatsion ta'lim, Chet tilini o'qitish, Ijodiy yondashuv, Muammo yechimi, Til metodikasi, Foydalanuvchi ehtiyoji, O'qituvchi tajribasi, O'quv metodologiyasi, Pedagogik innovatsiyalar

Abstract: This article explores the origin, essence, and application of the design thinking method in education, particularly in foreign language teaching. Design thinking is a creative and systematic approach to problem-solving that focuses on developing innovative solutions based on users' needs. The paper analyzes the historical roots and practical use of this method, with a special emphasis on its effectiveness in English language instruction. Teachers' perspectives on the method, as well as the relevance of factors such as experience, qualification, and gender, are examined through statistical analysis. The author presents design thinking as a crucial tool for modernizing educational processes and developing next-generation competencies.

Keywords: *Design thinking, Innovative education, Foreign language teaching, Creative approach, Problem-solving, Language methodology, User needs, Teacher experience, Educational methodology, Pedagogical innovations*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются происхождение, сущность и применение метода дизайн-мышления в образовании, особенно в преподавании иностранных языков. Дизайн-мышление представляет собой творческий и системный подход к решению проблем, ориентированный на разработку инновационных решений с учетом потребностей пользователей. В статье анализируются исторические корни и практическое применение данного метода, с особым акцентом на его эффективность в обучении английскому языку. Рассматриваются взгляды преподавателей на метод, а также значимость таких факторов, как опыт, квалификация и гендер, на основе статистического анализа. Автор представляет дизайн-мышление как важный инструмент модернизации образовательных процессов и формирования компетенций нового поколения.*

Ключевые слова: *Дизайн-мышление, Инновационное образование, Преподавание иностранных языков, Творческий подход, Решение проблем, Методика преподавания языков, Потребности пользователей, Опыт преподавателя, Образовательная методология, Педагогические инновации*

Hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishdan tortib ta'lim muassasasi kabi tashkilotlarning barchasi yuzaga keladigan muammolarni hal qiladigan innovatsion xizmatlar, mahsulotlar va tajribalarni o'rganish va yaratishga intiladi. So'nggi o'n yilliklarda yuzaga kelayotgan muammoni hal qilish metodologiyasi, ijodiy yondashuvlar, taktikalar va ushbu fanlararo jarayonni aniq ko'rsatish zarurati paydo bo'ldi. Ushbu innovatsion jarayonni boshqarishning kuchli usuli sifatida dizayn fikrlash metodi barcha sohalaridagi muammolarni hal qilishda eng yaxshi yechim topishning samarali usuli sifatida ta'lim sohasiga ham ko'chdi.

Dizayn fikrlash, menejment va innovatsiyalar bo'yicha yangi mutaxassis Maykl Luxs ushbu metodga quyidagicha ta'rif beradi: "...muammolarni hal qilishda

ijodiy yondashuv yoki aniqrog'i, muammolarni aniqlash va ijodiy hal qilishda tizimli va hamkorlikda yondashuv". Dizayn fikrlashning manfaatdor tomonlar, tizimlarga yaxlit yondashuvi va uning ishtiroki, hamda tabiati uni an'anaviy ravishda dizayn fanlari doirasidagi san'at, arxitektura, muhandislik va texnologiya sohalaridan tashqarida foydalanish uchun qulay usulga aylantirdi.

Til o'rgatishda, ayniqsa, dizayn fikrlash metodidan foydalanish yaxshi samara beradi, o'qitish jarayonini yanada qiziqarliroq va foydaliroq qilishi mumkin, chunki u chet tili o'rganishni ona tili bilan bog'laydi. Bunda kundalik hayotda va turli vaziyatlarda uchraydigan muammolarni hal qilishda ingliz tilidan foydalanishni taqozo qilishi bilan kelajakda chet tilida bimalol turli vaziyatlarni muhokama qila oladigan, ularga mos eng yaxshi yechimni topish bilan birga o'sha yechimni chet tilida ifodalay olish hamda muhokama qila olish qobiliyatini, bilim va ko'nikmasini rivojlantiradi.

Har bir sohada bo'lgani kabi chet tili o'qitish va o'rganish sohasida ham davr talabiga ko'ra ko'plab o'zgarishlar amalga oshadi. Biror til o'qitishning uchun mutlaqo qoida mavjud emas. Ushbu omilga ko'ra, muayyan sharoitlarda ma'lum til o'qitishning aniq talabalar uchun mo'ljallangan komponentlarini ishlab chiqish muhim. Buni amalga oshirishda dizayn fikrlash metodi juda samarali hisoblanadi. Dizayn fikrlash metodi metodikada yangi tushuncha emas. U fanga ilk bora 1969 yilda Simon tomonidan dizayn jarayonida "fikrlash usuli" sifatida kiritilgan. Keyinchalik, Row ushbu kontseptsiya ustida tadqiqot olib bordi va uning mohiyatini kengaytirdi. Natijada ushbu yondashuvni "ijodiy harakat usuli" deb ta'rifladi. Kontseptsiya avvalambor arxitektura, dizayn va san'at sohalarida paydo bo'lgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan menejment sohasida ham qo'llanila boshlagan. Dizayn fikrlash — muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan eng puxta tashkil etilgan jarayon bo'lishidan tashqari, ijodiy va intuitiv tabiatga ham egadir. Dizayn fikrlash foydalanuvchining ehtiyojlariga katta e'tibor berish orqali so'nggi natijada innovatsiyalarni taqozo qiladi. Bundan tashqari ham dizayn fikrlash metodi qator afzalliklarga ega, ular jumlasiga kognitiv moyillikni kamaytirish va tashkilot madaniyatini innovatsiyaga aylantirish

kabilarni kiritish mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dizayn fikrlash usullarini qo'llash orqali raqobatdosh ustunlikka erishish mumkin.

Dizayn fikrlash metodini o'rganuvchi ilk tadqiqotlar 1960-yillarga borib taqalsa-da, biznes kontekstida dizayn fikrlashning tamoyillarini qo'llash g'oyasi ularga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Shunday qilib, tadqiqotlar uzoq vaqtdan beri dizaynni biznes va boshqaruv bilan bog'laydigan xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. So'nggi yillarda ilovalar, shartlar va ta'sirlarni o'rganish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazildi. Uzoq vaqt davomida xulosalar asosan amaliy ilovalarni tavsiflovchi amaliy tadqiqotlarga asoslangan edi. Yaqin muddat ichida tadqiqotchilar dizayn fikrlash metodining ta'sirini o'lchash uchun miqdoriy metodologiyalardan foydalanishni boshladilar. Amaliyotda ommalashganligi sababli, yillar davomida dizayn fikrlash metodiga nisbatan olimlarning e'tibori ortib, ushbu metod bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlarining, nashrlarning ko'payishiga olib keldi. Biroq, keng adabiy manzarani murakkab va tarqoq deb ta'riflash mumkin.

Dizayn fikrlash — bu iterativ jarayon bo'lib, unda foydalanuvchilarni tushunish, taxminlarni so'roq qilish, muammolarni qayta aniqlash, ularni prototip va sinovdan o'tkazish kabi jarayonlarga munosib innovatsion echimlarni yaratishga harakat qilinadi. Umumiy maqsad dastlabki tushunish darajasiga mutlaqo aniq bo'lmagan muqobil strategiyalar va echimlarni aniqlashdir. Dizayn fikrlash shunchaki oddiy jarayon emas; balki ushbu metod orqali butunlay yangi fikrlash usuli ochiladi va ushbu yangi fikrlash tarzini qo'llashga yordam beradigan amaliy usullar to'plami taklif qilinadi.

Dizayn fikrlash — bu innovatsion ijodiy faoliyatning spektrini to'liq insonga yo'naltiruvchi dizayn ruhi bilan singdiradigan metodologiyani anglatadi. Asosiy e'tibor “qiyin muammolar” g'oyalari va echimlariga (mahsulotlar, xizmatlar va tizimlar) — muayyan foydalanuvchilar guruhlar uchun hayotiy va yangi echimlarni topish zaruriyatiga qaratadi. Dizayn fikrlash — bu tajriba, modellashtirish va prototiplash, fikr-mulohazalarni yig'ish va qayta loyihalashni o'z ichiga olgan

analitik va ijodiy jarayondir. Innovatsiya so'zining mazmun mohiyatini anglash uchun uning hayotdagi rolini va qanday vaziyatlarda yuzaga kelishini aniqlash muhimdir. Inson hayotida nimani xohlashini va nimaga muhtojligini, shuningdek, ma'lum bir mahsulotni qanday ishlab chiqarish, qadoqlash, sotish, uni yoqtirishi yoki yoqtirmasligini anglashidan kelib chiqadi. Dizayn fikrlash metodi ta'limga ancha oldin kiritilgan va tatbiq qilinib borayotgan bo'lsa-da, bu borada olib borilgan tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv dasturlarini isloh qilishda dizayn fikrlashdan foydalanilgan adabiyotlardagi ba'zi misollar tibbiyot ta'limi, kasb-hunar ta'limi, sanoat muhandisligi va tadbirkorlik ta'limi va til ta'limi sohalarida keltirilgan.

Ingliz tili o'qituvchilarining dizayn fikrlash bo'yicha qarashlarini tahlil qilinsa, ularda tajriba, jins va mahorat omillarining olimlarning dizayn fikrlash to'g'risidagi qarashlarining shakllanishiga ta'sir qilganini kuzatish mumkin. Masalan, tadqiqotchi Amman ishlab chiqargan, to'g'riligi va ishonchliligi isbotlangan dizayn fikrlash shkalasi natijalariga ko'ra dizayn fikrlash bo'yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo'lgan ingliz tili o'qituvchilarining tajribasi yoki malakasi, gender kelib chiqishi turlicha. Demak, aytish mumkinki, statistik jihatdan gender, malaka va tajriba kabi ko'rsatkichlar o'qituvchilarning dizayn fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Plattner, H., Meinel, C., & Leifer, L. (2015). Design thinking: understand – improve – apply. Springer vieweg
2. Zayniddinovna, T. G., & Khasanovna, N. M. (2023). Game technologies in teaching. Galaxy international interdisciplinary research journal, 11(6), 384-386.
3. G. Toshmukhammedova. (2022). EFL teachers: how to teach english as a second language to young beginners. World scientific research journal 3 (2), 32-35.
4. Тошмухаммедова, Г. (2025). Цели и задачи метода Design Thinking в обучении языкам. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(2), 358–367. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/76238>